## Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

### “Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi

<table>
<tr><th>Loyiha mavzusi</th><th>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</th></tr>
<tr><td>Olimpiya va paralimpiya sport turlarida yuqori natijaga erishish uchun virtual reallik (VR) va simulyatsion trening texnologiyalarini joriy etish<br></td><td>Tadqiqot shakli: Amaliy.<br>Ilmiy tadqiqot natijalari:<br>Olimpiya va paralimpiya sport turlari uchun VR va simulyatsion treninglarga asoslangan innovatsion tayyorgarlik tizimi yaratiladi.<br>Sportchilarning texnik-taktik harakatlarini xavfsiz va nazorat qilinadigan virtual muhitda ko‘p marta takrorlash imkoniyati yaratiladi.<br>Real musobaqa muhitini modellashtirish orqali sportchilarning stressga chidamliligi, qaror qabul qilish tezligi va psixik barqarorligi oshiriladi.<br>Mashg‘ulot jarayonida xatolarni tezkor aniqlash va biomexanik tahlil qilish imkoniyatini beruvchi raqamli analitik baza shakllantiriladi.<br>Jarohatdan keyingi reabilitatsiya jarayonlarida VR texnologiyalaridan foydalanish orqali sportchilarni sportga qaytarish muddati qisqaradi.<br>Paralimpiya sportchilari uchun adaptiv virtual mashg‘ulot platformalari ishlab chiqiladi va ularning funksional imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.<br>Sportchilarning individual xususiyatlariga mos intellektual trening dasturlari yaratiladi.<br>Trenerlar uchun sportchining harakat texnikasi, reaksiya tezligi va funksional holatini baholashga xizmat qiluvchi raqamli monitoring tizimi ishlab chiqiladi.<br>O‘zbekiston sport tizimida ilk bor VR va simulyatsion texnologiyalarga asoslangan milliy ilmiy-amaliy laboratoriya faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.<br>Milliy terma jamoalarning xalqaro musobaqalarga tayyorgarlik sifati oshadi hamda medallar salohiyatini kuchaytirishga ilmiy asos yaratiladi<br>Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Sport vazirligi tizimidagi tashkilotlar va muassasalarda sinovdan o‘tkaziladi, ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sport vazirligining xulosasi olinadi.<br>Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va Web of Science/Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi<br>Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sport vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</td></tr>
</table>